

Abdullayev Shavkatjon Shokirjon o'g'li

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail:abdullayevshavkat1995@gmail.com

SATIRA JANRINING ETIMOLOGIYASI VA NAZARIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada satira terminining kelib chiqishi haqida qarashlar va olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar haqida so'z yuritiladi. Xususan, satira terminologiyasiga atroflicha to'xtalib o'tiladi va unga olimlar tomonidan berilgan ta'rif va tasniflar jamlanmasi taqdim etiladi. Dastlabki davrlarda satiraning ilk ko'rinishlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, satiraning badiiy janr sifatida ijtimoiy vazifasi va asarlarda qanday maqsadlarda qo'llanilishi haqida adabiyotshunoslar va olimlar tomonidan berilgan fikrlar jamlanadi.

Kalit so'zlar: satira, tanqidiy kulgu, ijtimoiy vazifa, hajv, janr, komiklik

Абдуллаев Шавкатжон Шакиржон угли

Наманганский государственный университет Преподаватель

САТИРИЧЕСКОГО ЖАНРА: ЭТИМОЛОГИЯ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды на происхождение термина «сатира», а также исследования, проведённые учёными в этой области. В частности, подробно анализируется сатирическая терминология и представляется совокупность определений и классификаций, предложенных различными исследователями. Освещаются первые проявления сатиры в ранние периоды. Кроме того, обобщаются мнения литературоведов и учёных о социальной функции сатиры как художественного жанра и о целях её использования в художественных произведениях.

Ключевые слова: сатира, критический юмор, социальная функция, насмешка, жанр, комичность.

Abdullayev Shavkatjon Shokirjon o'g'li

Teacher at Namangan state university

THE ETYMOLOGY OF THE SATIRICAL GENRE AND THEORETICAL APPROACHES

Abstract: *This article discusses scholarly views on the origin of the term satire and the research conducted by scholars in this field. In particular, the article provides a detailed overview of satirical terminology and presents a compilation of definitions and classifications proposed by researchers. It also examines the earliest manifestations of satire in the initial historical periods. Furthermore, the article summarizes the opinions of literary critics and scholars regarding the social function of satire as a literary genre and the purposes for which it is employed in literary works.*

Keywords: *satire, critical humor, social function, parody, genre, comedy*

Kirish

Adabiyotshunoslikda satira janri adabiy janr sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, uning eng dastlabki ildizlari qadimgi Rim, Yunon va Misr adabiyotiga borib taqalishi haqida bir qancha manbalar mavjud, xususan "The Satire of the Trades" (Kasblar satirasi), "The Knights" (Ritsarlar) kabi asarlarni bunga yaqqol misol sifatida olishimiz mumkin. Satira terminiga bog'liq deb e'tirof etilgan eng qadimgi manbalardan biri "The Satire of the Trades" (Kasblar satirasi) miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Misr yozuvlarida aks etgani haqida bir qancha ma'lumotlar mavjud [1]. Shuningdek, satira janr sifatida bir qancha ijtimoiy vazifalarni bajaradi va ushbu xususiyatlari bilan o'zida kulgu, hajvni aks ettiruvchi adabiy elementlardan farq qiladi. Xususan, uning diqqat markazida tanqidiy kulgu orqali jamiyatda va shaxslarda mavjud illatlar

qoralanishi va ularni yo'q qilishga urinish kabi harakterlarni aks ettirilganligiga guvohi bo'lishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Satira janrining kelib chiqishi haqida hozirgi kunga qadar turli xildagi talqinlar mavjud bo'lib, uning kelib chiqishi haqida yakdil xulosaga kelinmagan. Ushbu janrning kelib chiqishi haqida qarashlar va janrning tavsifi haqida ko'plab olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Qadimgi yunon adabiyotida "satira" terminiga doir ma'lumotlar uchrasada, ushbu termin kelib chiqishini yunon adabiyotiga bog'lash fikrini inkor etgan olimlar ham mavjud bo'lib, xususan B.L.Ullman va Isaac Casaubonlar yaqqol misol bo'la oladilar. B.L.Ullmanga ko'ra, "satira" so'zi lotincha *satura* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning kelib chiqishi yunon mifologiyasidagi satir obrazi bilan bog'liq emas, deb hisoblanadi [2]. XVII asrda eng dastlabkilardan bo'lib Isaac Casaubon "satira" atamasining kelib chiqishini yunoncha satir obrazi bilan bog'liq degan fikrni inkor qilgan filolog hisoblanadi [3]. Satira termining kelib chiqishini Rim adabiyotiga bog'lashda asosiy figuralardan biri Quintilian hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, satira janri asosan Rim adabiyotida shakllangan bo'lib, "Satura tota nostra est" (ya'ni "satira butunlay bizniki") iborasi bilan u satiraning kelib chiqishini qadimgi Rim adabiyoti bilan bog'lagan [4].

Mashhur Ingliz satirik yozuvchilardan Jonatan Svift satiraga quyidagicha ta'rif beradi: satira shunday turdagi qadahki, guvohlar har kimning hattoki o'zlarining yuzlarini kashf etadilar [5].

Yurtimiz olimlari tomonidan ham satira janri doirasida amalga oshirilgan izlanishlar mavjud bo'lib, xususan D.Quronov, Z.Mamajonov va M.Sheralievanning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da satira va yumorga quyidagicha izoh berilgan: "Satira obyektida idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtai nazaridan to'la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektidagi ayrim jihatlarinigina inkor qilish ko'zda tutiladi. Adabiyotning

badiiy arsenalida kinoyani yuzaga chiqaruvchi qator badiiy usul va vositalar mavjud bo‘lib, ularga grotesk, karikatura, parodiya, kalambur, zakiylik, ezop tili, komik kontrast kabi qator vositalarni misol qilish mumkin [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada satira terminining kelib chiqishi haqidagi dastlabki davrlardagi va zamonaviy qarashlar O‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan berilgan talqinlar yordamida solishtirildi. Satiraning janr sifatida adabiyotshunoslikda tutgan o‘rni haqida adabiyotshunoslar va izlanuvchilar tomonidan berilgan ta’riflar o‘rganildi.

Natijalar va ularning tahlili

Quintilianning talqiniga ko‘ra “satira” qat’iy adabiy shakl edi, lekin tez orada bu so‘z o‘zining tor ma’nosini yo‘qotdi. Ma’lum bir so‘z metafora sifatida iste’molga kirib kelsa, ushbu so‘z foydalanish jihatidan kengayishga intiladi. “Satira” termini ham dastlab ot so‘z turkumiga tegishli so‘z sifatida iste’molga kirib kelgan va keyinchalik fe’l, sifat kabi ma’nolarni ifodalash zaruriyati yuzaga kelgan. Natijada, Ingliz tilidagi lotincha satura so‘zidan kelib chiqqan “satira” terminining fe’l va sifat so‘z turkumidagi shakllari Yunoncha muvofiq shakllari bilan boyitildi [7].

Satira (lot. satira – qurama, har xil narsa) – komiklik turi, tasvir obyektni ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, no‘tog‘ri hodisalar illatlar fosh qilinadi [8]. Bunga misol sifatida quyidagi ta’rifni keltirishimiz mumkin: *Jonathan Swift’s “A Modest Proposal” is a famous piece of political satire, using irony to highlight social issues. – (Jonatan Sviftning “Kamtarona taklif” asari jamiyat muammolarini yoritishda kinoyadan foydalangan mashhur siyosiy satiradir [9].*

Tarjimon uchun badiiy adabiyotdagi eng murakkab, ko‘p ma’noli va oldindan aytib bo‘lmaydigan janrlardan biri — **satirik janr** hisoblanadi. Bu holat bejiz emas. Bugungi kunda dunyoda “satira” tushunchasiga doir ta’riflar

juda ko'p bo'lib, shu sababli adabiyotshunoslar undan foydalanish uchun yagona, umumqabul qilingan ta'rifni tanlash masalasida bir to'xtamga kela olmaydilar [10]. "Satira" N. I. Vinogradov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "Satira — komiklikning bir turi bo'lib, u boshqa turlardan (yumor, ironiya) fosh etishning keskinligi bilan farqlanadi" [11].

Shuningdek, satira janrini hazil-mutoyiba asosidagi masxara bilan adashtirmaslik zarurdir. Nobel mukofoti sovrindori, satirik dramaturg Dario Fo aynan satira va hazil-mutoyiba asosidagi masxara bilan farqini ta'kidlab o'tgan. Hazil-mutoyiba asosidagi masxara kulgu vositasi hisoblanib, yuzaki parodiya bilan cheklanadi. Ya'ni, ma'lum bir shaxsning tashqi ko'rinishi va kiyimlari haqida yengil kulgu ulashadi. Ushbu kulgu vositasi obyektni tanqid qilishni maqsad qilmaydi va aksincha kulgu ostiga olinayotgan insonga nisbatan hamdarlik tuyg'usini shakllantiradi. Satira esa keng doirada ijtimoiy yoki siyosiy kuchlarga qarshi ishlatiladi. Tanqid ostiga olinayotgan obyektning kamchiliklarini, zararli jihatlari ko'rsatishga hamda o'quvchilarni hukm chiqarish, tanqid qilishga undaydi [12].

Mazkur adabiy janrga berilgan o'ziga xos bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, xususan **satira** atamasi lotincha *satura* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "to'la", "aralash" ma'nolarini anglatadi va gastronomik termin sifatida qo'llanilgan *satura lanx* — mazmuni aniq bo'lmagan, turli mahsulotlardan tayyorlangan to'ldirma taom nomi bilan bog'liqdir [13]. Djon Entoni Bouden Kaddonning "Adabiy atamalar va adabiy nazariyalar" lug'atida satira terminiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Satira (lotincha satira, keyinchalik satura shaklida). Bu atama kelib chiqish tarixiga ko'ra, pishirishga doir atama bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda grekcha "satyros" va "satura" so'zlari orasida chalkashlik bo'lib, satyra shaklidagi so'zga borib taqaladi. Bu so'z ingliz tilida satyre deb yoziladi. Elizabet davri yozuvchilari satira atamasi grekcha satyr so'zidan kelib chiqqan deb hisoblashgan [14].

Satiraga Ingliz olimi M.X.Abramsning “Adabiy atamalar lug’ati”da “satira –masxara qilish; nafrat va g’azabni inkor qiluvchi munosabatni uyg’otish orqali uni batamom yo‘q qilishga yo‘naltirilgan adabiy san’at, deb ta’riflangan. Komediya dan farqi shuki, komediya da kulgi uyg’onadi, ammo satirada masxara qilinadi; ya’ni kulishni qurol sifatida tanqid ostidagi shaxs yoki holatga qarshi ishlatadi” deya ta’rif berilgan [15].

Koyle M Routledj adabiy atamalar lug’atida satiraga quyidagicha ta’rif beradi va bir vaqtning o’zida ushbu janrning komediya dan farqli jihati haqida so’z yuritgan: “Satira o’z ichki shakliga ko’ra, dastavval, janr sifatida aniqlangan, ammo u faqatgina janr emas. Unda muallif fantastik va absurd bo’lgan hajv vositalarini mohirona qo’llab, biror obyektga hujum qiladi va kulgi uyg’otadi.” [16]. Demak, satira faqatgina janr emas, ijtimoiy va estetik vosita sifatida ham namoyon bo’ladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, satira terminining kelib chiqishi haqida qarashlarning rang-barangligi, uning qaysi xalq adabiyotiga bog’liq holda dunyoga kelganligi haqida xulosa chiqarishda sezilarli darajada qiyinchilik tug’diradi. Shuningdek, satiraga janr sifatida berilgan ta’riflar, ushbu janrning ijtimoiy vazifasi va satirik asarlarda ilgari surilgan g’oya haqida tushunchaga ega bo’lishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lichtheim, Miriam. *Ancient Egyptian Literature. Vol. 1, The Old and Middle Kingdoms*. 2nd ed. Berkeley: University of California Press, 2006.
2. Ullmann, B. L. “Satira and Satire.” *Classical Philology* 8, no. 2 (1913): 172–194. <https://doi.org/10.1086/359771>.
3. Szabari, Antonia. *Less Rightly Said: Scandals and Readers in Sixteenth-Century France*. Stanford: Stanford University Press, 2009.
4. Ugolini, Paolo. “Satire.” In *Encyclopedia of Renaissance Philosophy*, edited by Massimo Sgarbi, 1–10. Springer International Publishing, 2016.

5. Waugh, Evelyn. *A Little Order*. London, 1977.
6. Quronov, D., Z. Mamajonov, and M. Sheraliyeva. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Tashkent: Akademnashr, 2013.
7. R C. Elliott, "The Nature of Satire," in *Encyclopædia Britannica* 2004.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2004. – 8-том. – Б. 212.
9. M. H. Abrams and Geoffrey G. Harpham, *A Glossary of Literary Terms*, 11th ed. Boston: Cengage Learning, 2015.
10. M. N. Nikolaeva and N. S. Minakova, "Satira v khudozhestvennom proizvedenii: mesto v sisteme kategorii komicheskogo i osnovnye priemy satiricheskogo izobrazheniia," in *Obshcheteoreticheskie i chastnye voprosy sovremennogo iazykoznanii* (2020), 300–305.
11. N. I. Vinogradov, *Satira i iumor* (Moscow: Izdatel'stvo "Bibliograficheskie izvestiia," 1916), 1.
12. Fo, Dario, and Jennifer Lorch. *Dario Fo*. Manchester: Manchester University Press, 1997. p. 128.
13. Ugolini, Paolo. "Satire." In *Encyclopedia of Renaissance Philosophy*, edited by Massimo Sgarbi, 1–10. Springer International Publishing, 2016.
14. Cuddon, J. A. *Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. London: Penguin Books, 1999.
15. Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*. Boston: Cornell University Press, 1999.
16. Coyle, Martin, Peter Garside, Malcolm Kelsall, and John Peck. *Encyclopedia of Literature and Criticism*. London and New York: Routledge, 1993. 211 p.